

**Talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida axborot
Texnologiyalari**

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Shakarova Ruxshona Iskandarovna**

Annotasiya: Ushbu maqola talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning foydali va zararli tomonlari, ta’limda axborot texnologiyalarini qo’llash haqida

Kalit so‘zlar: talaba, pedagog axborot texnologiyalari, mustaqil ta’lim, kompyuter, innovatsiya, zamonaviy texnika, jarayon kadr, qurilma.

Kirish

Ta’lim jarayoni kundan-kunga taraqqiy etib borayotgan jamiyat ijtimoiy sohalarining biri hisoblanadi. Bu sohaga axborot texnologiyalarining roli va dolzarbligiga e’tibor qaratilishining mohiyati shundaki, ayni paytda “ta’lim” ustuvor milliy loyihasini amalga oshirish doirasida axborot texnologiyalari ta’lim jarayoniga faol joriy etilmoqda. Zamonaviy texnik o‘quv vositalarining konsentratsiyasi o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishga yordam beradi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi, o‘qituvchilar ijodiyotini rivojlantirishga yordam beradi, masofaviy ta’limga imkon beradi, uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantiradi va shu bilan o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Hozirgi kunda ta’limni rivojlantirish unda sifat darajasini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo’llanilishi keng tarqalgan metodik qo’llanmalardan biriga aylandi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni talimda kiritilishi ta’lim jarayonini osonlashtirdi desak adashmaymiz. Mustaqilligimizdan so‘ng “kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta’lim sifatiga e’tibor yanada kuchaydi. Unda o‘qituvchi bilim malakalarini oshirish o‘quvchilar, talabalar bilan ishlashda yetarlicha bilim va malakalarga ega bo‘lish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Ushbu kurslar asosan ta’limda innovatsion qurilmalar ya’ni kompyuter imitatsion modellarni dars jarayonlarida foydalanash hamda zamonaviy texnologik qurilmalardan keng qo’llamda ishlatilish imkoniyatlarini berdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 3-bob 2-qismida ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy qilishga keng e’tibor qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Sh.Rustamov o‘zining “Talabalarda mustaqil ta’limni tashkil etish” nomli maqolasida keltirgan: Axborot texnologiyalari talabalarga kompyuterda juda ko‘p ma’lumot va resurslarga tezkor kirish imkonini beradi. Shu jumladan, talabalar axborot texnologiya ta’limresurslaridan kunning ixtiyoriy vaqtida, o‘zlariga qulay joyda mustaqil ish ustida izlanishlarini notebook yoki mobil qurilmalari yordamida turli mavzularda video darslar ko‘rishi, tadqiqot o‘tkazishi va universitet kutubxonasida mavjud bo‘lmagandarsliklarini internet sahifalaridan izlab topishiga imkon yaratadi . Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning vaqtlarini tejash va mustaqil ishlarigabo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi . Ammo axborot texnologiyalarining rivojlanishi, elektron resurslarning ko‘payib borishi turlishakldagi va ko‘rinishdagi axborotlarga kirish tufayli ayrim talabalar axborot resurslaridan noto‘g’ri foydalanishi kuzatilmoqda yani mualliflik huquqiga rioya qilmagan holda talabalar mustaqil ishlarini yozayotganda ko‘chirmachilik qilayotganlari kuzatilmoqda . Buning oldini olish maqsadida plagiat tekshiruvdasturlari tufayli ochiq manbalardagi matnlarni tahlil qilish va ularni tekshirilayotganmatn bilan taqqoslash o‘qituvchilar uchun oson yechimga aylandi. Shu sababdan she’rlar, adabiyot asarlari, kurs ishi, maqola, tezislar va boshqa shu kabi adabiyotlardan foydalanishda mualiflik huquqini buzmagan holda atribut va belgilardan foydalanib iqtiboslarni kiritish lozim. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quvjarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish joriy etilganidan so‘ng talabalarning mustaqil ishlashi taminlandi, talabalar bilimini reyting asosida baholash kiritildi bu esa talabalarning mustaqil ta’lim olishlarida samarali usul bo‘ldi . Talabalarning ilk ilmiy-tadqiqot ishi mustaqil ish bo‘lganligi sabab dastlab mustaqil ish mavzusi tanlab olinadi, so,,ngra mavzuga taalluqli asar, ilmiy ish va shu kabi adabiyotlar bilan tanishib o’sha mavzuni yoritib berish bilan birga, ilmiy xulosalar tahlil qilinib, shuningdek, munozarali masalalar haqida fikr bildirib, ayrim masalalar tanqid qilinishi mumkin.

Axrорор B. o‘zining “ Zamonaviy ta’lim texnologiya” nomli maqolasida shunday fikrlar keltirgan: Talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga, bizning fikrimizcha, o‘quv jarayonining dastlabki kunlaridanoq e’tibor qaratish lozim. Talabalarga ilmiy axborot hajmining ortib borishi,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ba’zi bilimlarning yangilanib borishi hisobiga boshqalarining tez eskirishi kuzatilayotgan hozirgi sharoitda yangi bilimlarni izlab topishlarida mustaqil ishning ahamiyati alohida tushuntirilishi uni bajarish samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.“Axborot texnologiyalari” fanini talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi ularning auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mashg‘ulotlarga vijdonan munosabati va mustaqil ishni bajarish jarayonida o‘qituvchi ularga mustaqil ishslash mahoratini qay darajada singdira olganligi hamda foydalanimadigan metodik usullarning qanchalik to‘g‘ri ekanligiga bogliq. Shuning uchun talabalarning barcha mustaqil faoliyati o‘qituvchi tomonidan ’kuzatib borilishi va nazorat qilinishi kerak. U maslahat, ko‘rsatmalar berish, metodik usullarni tushuntirib berish, nazorat qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabati (biri boshqaruvchi, ikkinchisi esa ijro etuvchi) to‘g‘ri tashkil etilishi muhim. Bunda ustuvor vazifa sifatida “Axborot texnologiyalari” fanini o‘zlashtirishini ilmiy asoslangan metodik boshqarish e’tirof etiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish sifati hamda samaradorligi butun pedagogik jarayonni baholashning eng muhim mezoniga aylanadi.

Muhokama

Ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonida axborot ta’lim texnologiyalaridan keng foydalinish talabalarga soha obyekti va predmeti haqida ma’lumot berish samaradorlini oshirish bilan bir qatorda ularning ongida jarayonlar yuzasidan dastlabki tushunchalarning shakllaniga ham yordam beradi. Sohaga oid korxona va tashkilotlarda real shroitlarda yuzaga keladigan xilma-xil va murakkab munosabatlar, tashqi va ichki omillar ta’sirida ushbu aloqalarda kuzatiladigan dinamikani anglash va o‘zlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Qolaversa, bunday vositalar talabalarda innovatsion fikrlash, boshqaruvga ijodiy yondashuv hislatlarini shakllantiradi. Natijada ularning faoliyati standart usullar emas, balki hodisa va jarayonlarning sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga asoslangan, mustaqil qabul qilingan qarorlar ijrosidan iborat unikal chora-tadbirlar majmuiga aylanadi. Hususan, oliy ta’limning masofaviy shaklida axborot-ta’lim texnologiyasining o‘rnı beqiyos. Ushbu texnologiya masofaviy ta’lim shaklida quyidagi muhim afzallikkarni ta’minalash imkonini beradi: Moslashuvchanlik - talaba dars vaqtini, joyini va davomiyligini mustaqil ravishda rejalanashirishi mumkin. Modullik – o‘rganish uchun materiallar modullar ko‘rinishida taklif etiladi, bu esa talabaga o‘z talablari va imkoniyatlariga muvofiq o‘zing ta’lim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

trayektoriyasini yaratishga imkon beradi. Geografik mustaqillik - talaba va ta’lim muassasasining geografik joylashuvi ahamiyatga ega emasligi mamlakat aholisining ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini cheklanishiga yo‘l qo‘ymadi. Rentabellik - iqtisodiy samaradorlik, ya’ni bino-inshootlar uchun xarajatlarning keskin qisqarishi. Shuningdek, vaqt, ma’naviy va moddiy resurslarni (materiallarni chop etish, ko‘paytirish va boshqalar) tejash imkoniyati. Qamrov - bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli talabalarning ta’lim ma’lumotlarining ko‘plab manbalaridan (elektron kutubxonalar, ma’lumotlar ombori va boshqalar) foydalanish. Ishlab chiqarish va ta’lim integratsiyasi – o‘quv va ish jarayonining parallel tshkil etilishi va olib borilishi. Ijtimoiy tenglik - yashash joyi, sog‘lig‘i va moddiy ta’minotidan qat‘i nazar, ta’lim olish uchun teng imkoniyatlar. Xalqarolik – ta’lim xizmatlari bozorida xalqaro tajribalarni eksport va import qilish.

Natija

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda ta’lim oluvchilarning individual shaxs xususiyatlarini, ularning ta’lim olish uslublarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Har bir talaba ma’lumotni turli axborot qabul qilish kanallari orqali idrok etadi. Lekin, mazkur kanallardan qaysidir biri ko‘proq rivojlanganligi sababli ta’lim oluvchining axborotni aynan o’sha kanal orqali yaxshiroq qabul qilishi va osonroq o‘zlashtirishi fanga ma’lum. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta’limni to‘plangan bilimlarni yetkazish, ularni to‘ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog‘lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan – bu ta’lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo‘lmagan, ilg‘or axborot texnologiyasi ta’lim tizimida fanning ahamiyatini o‘zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o‘zi rivojlanishi bilan emas, balki ta’lim va o‘qitish tizimi bilan ham bog‘liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi. Texnologiyalari va telekommunikatsiyalarning hozirgi holatini tahlil qilish bizga hozirgi vaqtda loyihalashtirishda qator muammolarni hisobga olishni taqozo qiladi. Ulardan biri masofaviy ta’lim shaklida ta’lim samaradorligini aniqlash muammolari. Turli mamlakatlarning ta’lim tizimlarida masofaviy ta’limni tashkil etish va joriy etishda an‘anaviy ta’lim bilan taqqoslaganda masofaviy ta’lim samaradorligini baholash muammoysi paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish usullarining samaradorligini baholash odatda an‘anaviy usullar bilan taqqoslanadi va o‘quv natijalarini solishtirish bilan cheklanadi. Ba’zan esa talabalar tomonidan erishilgan natijalarga sarflangan vaqtni hisobga olinadi.

Xulosa

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish va o‘quv jarayonlarida qo‘llash sabablaridan biri bu talabalar faqat tayyor bilimlarni egallabgina qolmasdan o‘zlari axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mavzularni mustahkamlab olishlari mumkin bo‘ladi va o‘qituvchi esa talabalarni yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi .

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avliyoqulov N.H.O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. B.: 2001.
2. Azizzodjaev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. - 174 b.
3. Ziyomuhamedov B, Abdullaeva Sh. Ilg’or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot «Ma’naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan o‘quv qo‘llanma. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001.
4. O‘.Q.Tolipov., M.Usmonboeva . Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
5. To‘rabekov F.S. Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi. Avtoref. p.f.n., T.: 2011.

**Research Science and
Innovation House**